



## OZIQ-OVQAT SANOATIDA TADBIRKORLIK FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHDA BOZOR INFRATUZILMASINI SHAKLLANTIRISH YO'LLARI

**Mahamatova Maftuna**

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti  
ORCID: 0009-0001-9518-3510

**Annotatsiya.** Ushbu ilmiy maqolada iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida bozor infratuzilmalarining ahamiyati, jumladan oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqaruvchi korxonalar faoliyatiga infratuzilmaning ta'siri ko'rib chiqiladi. Shuningdek, iqtisodiyotdagi tarkibiy o'zgarishlar, uning yetakchi tarmoqlarini modernizatsiya qilish va yangilash hamda infratuzilma tarmoqlarini kengaytirish, oziq-ovqat sanoati tadbirkorligi infratuzilmasi bo'yicha moliya, sug'urta, lizing va baholash kompaniyalari kabi bo'g'inglarda amalga oshirilgan yangilanishlar hisobiga ham rivojlantirish bo'yicha taklif va tavsiyalar berilgan.

**Kalit so'zlar:** oziq-ovqat sanoati, oziq-ovqat bozori, oziq-ovqat turlari, bozor infratuzilmasi, bozor elementlari, axborot ta'minoti, raqobat muhiti, raqobat ustunligi, bozor imkoniyatlari, tadbirkorlik faoliyati, moliya, sug'urta, lizing, baholash kompaniyalari, tadbirkorlik subyekt, tadbirkorlik qobiliyati, tadbirkorlik infratuzilmasi.

## ПУТИ ФОРМИРОВАНИЯ РЫНОЧНОЙ ИНФРАСТРУКТУРЫ ПРИ РАЗВИТИИ ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ В ПИЩЕВОЙ ПРОМЫШЛЕННОСТИ

**Махаматова Мафтуна**

Ташкентский государственный  
экономический университет

**Аннотация.** В данной научной статье рассматривается значение рыночной инфраструктуры в контексте модернизации экономики, в том числе влияние инфраструктуры на деятельность предприятий по производству продуктов питания. Также даются предложения и рекомендации по развитию за счет структурных изменений в экономике, модернизации и обновления ее ведущих отраслей, расширения инфраструктурных отраслей, а также обновления, вносимые в такие связи, как финансовые, страховые, лизинговые и оценочные компании в инфраструктуре предпринимательства пищевой промышленности.

**Ключевые слова:** пищевая промышленность, продовольственный рынок, виды продуктов питания, рыночная инфраструктура, элементы рынка, информационное обеспечение, конкурентная среда, конкурентное преимущество, рыночные возможности, предпринимательская деятельность, финансы, страхование, лизинг, оценочные компании, хозяйствующий субъект, предпринимательские способности, предпринимательская инфраструктура.

## WAYS TO FORM MARKET INFRASTRUCTURE IN THE DEVELOPMENT OF ENTREPRENEURIAL ACTIVITY IN THE FOOD INDUSTRY

**Makhamatova Maftuna**

*Tashkent State University of Economics*

**Abstract.** *This scientific article examines the importance of market infrastructure in the context of economic modernization, including the impact of infrastructure on the activities of food production enterprises. Also, there are proposals and recommendations for the development of structural changes in the economy, modernization and renewal of its leading branches, expansion of infrastructure, food industry entrepreneurship, infrastructure, finance, insurance, leasing and appraisal companies.*

**Key words:** *food industry, food market, food types, market infrastructure, market elements, information supply, competitive environment, competitive advantage, market opportunities, business activity, finance, insurance, leasing, evaluation companies, business entity, entrepreneurial ability, entrepreneurial infrastructure.*

### **Kirish.**

Mamlakatimiz iqtisodiyotini ijtimoiy yo‘naltirilgan bozor yo‘nalishida isloh qilinishi, uni modernizatsiyalash va diversifikatsiyalash jarayonlarini amalga oshirilishi turli infratuzilma xizmatlarini ko‘rsatuvchi korxonalar sonining oshishiga olib keldi. Bozor infratuzilmasining vujudga kelish bosqichi nihoyasiga yetdi va endi dastlabki yakunlarni yasash, natijalarni baholash, infratuzilmaning rivojlanishi tendensiyasi va qonuniyatini hamda undagi hal qilinmasdan qolgan muammolarni aniqlash vaqti yetib keldi. Tadbirkorlik, xususan, oziq-ovqat sanoati tadbirkorligi rivojida infratuzilma omili muhim o‘rin tutadi.

Bozor infratuzilmasi ishlab chiqarish usulining tarixiy rivojlanishi natijasida yuzaga kelgan yordamchi tizim hisoblanib, barcha tizimli belgilarga javob beruvchi va mos ravishda, o‘zining tarkibiy unsurlariga hamda aniq maqsadga yo‘naltirilgan funksiyalar majmuiga ega. Bozor infratuzilmasi ma‘lum bir vazifani bajaradigan, maqsadli funksiyani amalga oshirishda ishtirok etuvchi o‘zaro hamkorlik qiluvchi hamda tashqi muhit bilan o‘zaro bog‘liqlik elementlar iyerarxiyasiga aytiladi. Ushbu qoida bozor infrastrukturasi bo‘yicha boshlang‘ich berilgan ta‘rif bo‘lib xizmat qiladi. Biroq, iqtisodiy adabiyotlarda “tizimlar” va “notizimlar” o‘rtasidagi farqning ijtimoiy-iqtisodiy mohiyatini tahlil qilish uchun foydalaniladi. “Tizimlarga kiritish mumkin bo‘lgan iqtisodiy strukturalar ikkita xususiyatga bo‘linadi. Bular vaqtga ko‘ra nisbiy barqarorlik hamda ichki elementlar o‘rtasida uzviy bog‘liqliklarning mavjudligi. Bu xususiyatlar orqali asosiy qarorlarni tahlil qilish hamda o‘tish davri iqtisodiyotini tadqiq etishda birinchi navbatda ular oqibatlarining tizimli jihati tahlil qilinishi kerak” (Lvov, 2002).

Mazkur shart-sharoitlarni ta‘minlashda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev ta‘kidlaganidek: “Bozor iqtisodiyoti sharoitida teng va halol raqobat muhitini yaratish maqsadida “Mamlakat oziq-ovqat xavfsizligini yanada samarali ta‘minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni hamda xo‘jalik yurituvchi subyektlar o‘rtasida o‘zaro aloqani ta‘minlash kerak bo‘lgan infratuzilmani shakllantirish darkor”<sup>66</sup>. Shuning uchun bozor infratuzilmasini yaratish va rivojlantirish O‘zbekistonda iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishning ustuvor yo‘nalishlaridan biridir. Ushbu ustuvor yo‘nalish vazifalariga alohida e‘tibor qaratishning bir qator sabablari mavjud: infratuzilmani rivojlantirish asosida yangi korxonalarni barpo etish va ularni joylashtirish hamda respublika iqtisodiyotini taraqqiy ettirish uchun zarur qulay shart-sharoitlar yaratiladi. Shuningdek, respublikani boy mineral xomashyo resurslarini o‘zlashtirishga imkoniyat yaratiladi; ishlab chiqarish infratuzilmasi o‘z navbatida ishlab chiqarilayotgan mahsulot va butun iqtisodiyotining raqobatbardoshligini

<sup>66</sup> <https://www.xabar.uz/siyosat/prezident-shavkat-mirziyoyevning-oliy-majlisga-murojaatnomasi>

oshiradi; ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish natijasida aholining turmush darajasi va farovonligi oshiriladi; infratuzilmani rivojlantirish hisobiga yangi ish o'rinlarini tashkil etish, aholini ish bilan bandligini ta'minlash mumkin. Ayni paytda infratuzilma tarmoqlari tadbirkorlikda quyidagi imkoniyatlarni yuzaga keltiradi: ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirib boradi hamda bozordagi vaziyatdan kelib chiqib, ishlab chiqarishga bozor talabini yetkazish orqali ishlab chiqarish qoidalarining tartibga solinishini ta'minlaydi; mahsulotning bozor narxini belgilaydi, buning uchun birja mexanizmidan foydalaniladi; mahsulotlar va xizmatlar bozorida bozor marketingi asosida buyurtmachi rolini bajarib, barcha iste'molchilar nomidan ish olib boradi va boshqalar.

Iste'mol bozorini oziq-ovqat tovarlari bilan to'ldirish, oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash, respublikada barqarorlikni ta'minlashning muhim omillaridan hisoblanadi. Oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashda qishloq xo'jaligi muhim o'rin tutadi. Bu borada O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev (2016) O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining qo'shma majlisidagi nutqida "Qishloq xo'jaligini isloh qilish va oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash masalalari, hech shubhasiz, biz uchun eng muhim vazifalardan biri bo'lib qoladi", deb ta'kidlab o'tganlar.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan chora-tadbirlar bosqichma-bosqich o'z samarasini berayotganligini davlatimizning global reytinglarda o'z o'rnini yaxshilab olayotganligidan ham ko'rish mumkin. Birlashgan Millatlar Tashkilotining "Oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi tashkiloti 2021-yil uchun Global ochlik indeksi reytingini e'lon qildi. 116 ta mamlakat joy olgan mazkur reytingda O'zbekiston ochlik darajasi past davlat deb topildi"<sup>67</sup>.

Ustuvor yo'nalish aholini barqaror narxlardagi xavfsiz va sifatli oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlashga qaratilgan. Bu esa, "O'zbekiston Respublikasining barqaror rivojlanish maqsadlariga (BRM), shu jumladan BMTning 2-BRM "Ochlikka barham berish, oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash, iste'molni yaxshilash va barqaror qishloq xo'jaligini targ'ib qilish" (Qaror, 2022)da belgilangan maqsadlarga erishishga xizmat qiladi.

Ta'kidlash joizki, ichki bozorni oziq-ovqat bilan to'ldirish, ularni ishlab chiqarish sohasida o'z-o'zini ta'minlashga erishish va oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash O'zbekiston iqtisodiyotining muhim sektori hisoblangan qishloq xo'jaligini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlaridan biridir. Chunki, O'zbekistonda qishloq xo'jaligi iqtisodiyotning yetakchi tarmog'i sanaladi. Shu jihatdan O'zbekistonda oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash uchun qishloq xo'jaligida yer va suv resurslaridan unumli, samarali foydalanishni ta'minlashga qaratilgan qonunchilikni yanada mustahkamlash, qishloq xo'jaligi mahsulotlari tarkibida oziq-ovqat mahsulotlari ulushining yuqori bo'lishiga erishish zarur.

Oziq-ovqat sanoati tadbirkorligi ham eng avvalo iqtisodiyotni erkinlashtirilishi va erkin raqobat muhiti qaror topishi sharoitida yuzaga keladi va rivojlanadi. U rivojlanayotgan mamlakat sharoitida iqtisodiyotni modernizatsiyalash va diversifikatsiyalash sharoiti yaratilgan va tadbirkorlik huquqiy jihatdan kafolatlangan jamiyatda rivojlana oladi. Bugungi kunda O'zbekistonda aholini oziq-ovqat mahsulotlariga nisbatan xarid quvvatini oshirish uchun ichki bozorini mamlakatimizda ishlab chiqarilgan tovarlar bilan muntazam ravishda to'ldirish uchun tadbirkorlikni rivojlantirish lozim.

### Adabiyotlar sharhi.

O'zbekistonda xususiy tadbirkorlik shakllari bo'yicha iqtisodchi olimlardan G'ulomov (2002) tadbirkorlikni quyidagi shakllarini aniqlagan: xususiy tadbirkorlik jismoniy yoki yuridik shaxslar (korxonalar) tomonidan amalda o'zining shaxsiy (xususiy) mulk asosida tashkil qilinadi; jamoa tadbirkorligi – fuqarolar guruhining jamlanma mulki asosida tashkil qilinadi; aralash tadbirkorlik – bitta yoki bir nechta yuridik shaxs yoki korxonalar, bir nechta jismoniy shaxslar

<sup>67</sup> <https://www.globalhungerindex.org/ranking.html>

mulkini birlashtirish asosida tashkil qilinadi; qo'shma tadbirkorlik – ikki yoki undan ortiq yuridik shaxslar, shu jumladan, chet el korxonalari mulkini birlashtirish yo'li bilan tashkil qilinadi; shartnomaviy tadbirkorlik – mulk egasi bo'lmagan korxonalar rahbari (yoki boshqa mas'ul lavozimdagi xodim – menejer) tomonidan shartnoma asosida amalga oshiriladi; korxonalar rahbari (yoki menejer) xuddi ishbilarmon fuqaroga mos tartibda ro'yxatga olinadi va u kabi mas'uliyatga ega bo'ladi.

Muftaydinov (2004): yakka tartibdagi mehnat faoliyati asosida amalga oshiriladigan xususiy tadbirkorlik; ayrim fuqarolar tomonidan yollanma mehnatni jalb etish asosida amalga oshiriladigan xususiy tadbirkorlik; bir guruh fuqarolar tomonidan amalga oshiriladigan jamoaviy tadbirkorlik; yuridik shaxslar va fuqarolarning o'z mulklari va mulkiy huquqlariga birlashtirish asosida amalga oshiriladigan hamkorlikdagi tadbirkorlik shakllarini ko'rsatib o'tadi.

G'aybullayev (2005) O'zbekiston Respublikasida tadbirkorlikning amalda faoliyat ko'rsatayotgan shakllari va taklif etgan subyektlarini quyidagi ko'rinishda tavsiflaydi: xususiy va yakka faoliyat ko'rsatish tadbirkorligi; hissadorlik jamiyatlari tadbirkorligi; ijara xo'jaliklari va shirkatlar tadbirkorligi; fermer xo'jaligi asosidagi tadbirkorlik; ishlab chiqarish kooperativlari tadbirkorligi; davlat mulkchiligi asosidagi korxonalar tadbirkorligi; notijorat-nodavlat tashkilotlar tadbirkorligi; xorijiy sarmoyalar ishtirokidagi qo'shma korxonalar tadbirkorligi.

Shepelev (1996) esa tadbirkorlik faoliyati va biznesning asosiy shakllarini tasniflashda quyidagicha yondoshgan: tadbirkorlikning kelib chiqish manbaiga ko'ra; ma'muriy-huquqiy shakllariga ko'ra; huquqiy tartibga solish jihatiga ko'ra; tovar va xizmatlarning yangilik darajasiga ko'ra. V.M.Shepelev tasnifi mazmuniga ko'ra ancha murakkab bo'lsa-da, uning ta'rif tadbirkorlik shakllarini bir nechta guruhga bo'lib o'rganishga imkon beradi (Umarov, 2019). Tadbirkorlikka berilgan ta'riflar va yetakchi olimlarning yondashuvlarida daromad kategoriyasiga e'tibor juda kuchli. Rasulovning (1999) fikricha, "tadbirkorlik daromadi – bu tadbirkorning o'z joriy faoliyatini yuritishdan va yangilikni qo'llashdan olinadigan foydaning hammasini emas, balki eng avvalo, qo'shimcha olinadigan daromadni tushunish lozim". Ikkinchi turdagi daromad esa mavjud resurslarga emas, balki innovatsion imkoniyatlardan foydalanishga yo'naltirilgan bo'ladi.

Lobacheva (2016) fikricha, "Oziq-ovqat xavfsizligi milliy xavfsizlikning bir qismi sifatida davlat agrar va iqtisodiy siyosatining eng asosiy maqsadlaridan biri bo'lib, aholining barcha qatlamlarini hayot kechirish uchun kerakli miqdor va sog'lom turmush uchun munosib sifatda oziq-ovqat ta'minotini kafolatlashi lozim".

Stukanova (2009) "oziq-ovqat tovarlari bozori infratuzilmasiga axborot tizimi, huquqiy tizim, moliya-kredit tizimi, savdo va vositachilik tashkilotlarini kiritadi".

P.T.Burdukov esa oziq-ovqat tovarlari bozoriga majmuaviy yondashib, uni "Mamlakat qishloq xo'jaligida oziq-ovqat, xom-ashyo va tayyor oziq-ovqatni siljitish bo'yicha amalga oshirilayotgan bitimlar, eksport-import operatsiyalari hamda shu bilan bog'liq ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar majmui"<sup>68</sup> sifatida ifodalaydi.

Goncharov (1996) bozor elementlarini to'liq aks ettirishga harakat qilib, oziq-ovqat tovarlari bozorini "oziq-ovqat tovarlarini ishlab chiqarish va taqsimlash jarayonida vujudga keladigan xo'jalik yurituvchi subyektlarning xaridor va sotuvchi tanlashdagi, narx belgilashdagi va mablag' shakllantirishdagi erkinlik bilan tavsiflanadigan iqtisodiy munosabatlar tizimi" deb ataydi. Ketova (2012) esa shu tarifni to'ldirib, "axborotdan foydalanish"ni ham qo'shadi.

<sup>68</sup> <http://www.duel.ru/publish/burdukov/glob.html> Burdukov P.T. Rossiya v sisteme globalnoy prodovolstvennoy bezopasnosti. (Elektronnyy resurs)

Kostrova (2014) oziq-ovqat tovarlari bozoriga dinamik tizim deb qaraydi: “Mahsulot sifati va narxi nazorat qilinib, ishlab chiqaruvchi va iste’molchi o’rtasidagi mustahkam aloqa, mutanosib ravishdagi ishlab chiqarish va yetkazishdagi dinamik tezkor tizimdir”.

Nuraliyev va Nuraliyevalar (2012) ham “Oziq-ovqat ishlab chiqarish, tashish, saqlash va sotish sohasida vujudga keladigan iqtisodiy munosabatlar tizimi” deb ta’riflaydi.

Fetyuxina (2011) esa, oziq-ovqat tovarlari bozori tushunchasini yoritishda “sotsium” (tabaqalanish) va “raqobatda ustunlik” kabi kategoriyalarni qo’llab quyidagicha ta’rif beradi: “Raqobat ustunliklari ko’rinishidagi keskin ta’sir ko’rsatadigan jamiyat hayotini ijtimoiy-iqtisodiy ta’minlash tizimi, uning asosiy tarkibiy qismlari oziq-ovqatga bo’lgan biologik ehtiyojlar, shuningdek, aholining to’lov qobiliyati va milliy ishlab chiqarish va import orqali shakllanadigan taklif tufayli noelastik talabdan iborat”.

Mamlakat rivojiga ta’sir etuvchi jihatlar keng qamrovli bo’lib, ular orasida oziq-ovqat xavfsizligi ham muhim o’ringa ega. O’z navbatida, oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlash ijtimoiy-iqtisodiy, demografik va ekologik omillarga bog’liq hisoblanadi.

Oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlashga qaratilgan davlat siyosati, asosan to’rt yo’nalishda amalga oshiriladi: 1) oziq-ovqatning mavjudligi; 2) oziq-ovqatni xarid qilish qobiliyati; 3) oziq-ovqatdan foydalanish; 4) oziq-ovqatning barqarorligi. Mazkur yo’nalishlarni oziq-ovqat xavfsizligining tarkibiy qismlari sifatida qayd etish mumkin.

Oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlashga ta’sir etuvchi omillar ko’p bo’lib, ular orasida aholi sonining ko’payishi, ishlab chiqarishning kengayishi natijasida tabiiy va energiya resurslariga bo’lgan talabning ortishi, mintaqalarda iqlimning o’zgarishi alohida ta’sirga egaligini qayd etish joiz.

### **Tadqiqot metodologiyasi.**

Maqolada oziq-ovqat sanoatida tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishda bozor infratuzilmasini shakllantirishning ahamiyati va sohadagi mavjud muammolarni ilmiy jihatdan o’rganish, qiyosiy solishtirish, statistik ma’lumotlarni o’rganish va iqtisodiy jihatdan taqqoslash va tahlil qilish, mantiqiy fikrlash, ilmiy abstraksiyalash, analiz va sintez, induksiya va deduksiya usullaridan keng foydalanilgan.

### **Tahlil va natijalar muhokamasi.**

Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida bozor infratuzilmalarining ahamiyati yanada oshib, ular o’rtasida raqobat muhitini kuchayishi davr taqozosi hisoblanadi. Shuningdek, iqtisodiyotdagi tarkibiy o’zgarishlar, uning yetakchi tarmoqlarini modernizatsiya qilish va yangilash hamda infratuzilma tarmoqlarini kengaytirishdan iborat. Oziq-ovqat sanoati tadbirkorligi infratuzilmasi (1-rasm) moliya, sug’urta, lizing va baholash kompaniyalari kabi bo’g’inlarda amalga oshirilgan yangilanishlar hisobiga ham rivojlanmoqda.


Bu hol oziq-ovqat sanoati tadbirkorligini zamonaviy texnologiyalar bilan ta’minlanishiga, mahsulot sifati va mehnat unumdorligining oshishiga olib kelmoqda. Yuqoridagi rasmda keltirilgan bozor infratuzilmasi iqtisodiyotning hamma tarmoqlari uchun xizmat qiladi, uning tarkibiga ijtimoiy infratuzilma tashkilotlari ham kiritilgan. Quyida biz bozor infratuzilmasining muammolariga to’xtalamiz va ko’rib chiqamiz.

Bozor infratuzilmasini rivojlantirishda shuni aniqlash joizki, O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1995-yil 28-avgustidagi 344-sonli Qarorida bozor infrastrukturalarini yanada takomillashtirish masalasi alohida bo’lim sifatida ajatilib ko’rsatilgan.

Davlat dasturini 1-bo’limida “Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning infratuzilmalarini yaratish” bo’yicha tadbirlar bilan boshlanadi. 2018-yil uchun davlat dasturining 3 bo’lim, 3.5 bandida “Iqtisodiyotda davlat ishtirokini kamaytirish, xususiy mulk huquqini himoya qilish va uning ustuvor mavqeini yanada kuchaytirish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik rivojini rag’batlantirishga qaratilgan institutsional va tarkibiy islohotlarni davom ettirish” masalasi hamda amalga oshirish bo’yicha vazifalar qo’shimcha ravishda belgilab olingan. Ushbu vazifalar



quyidagilar: tadbirkorlik subyektlari faoliyatini tekshirish tizimini tubdan qayta ko'rib chiqish; O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori tomonidan nazorat qiluvchi organlarning rahbarlari bilan birgalikda har oyda namunali, faol tadbirkorlik subyektlari bilan uchrashuvlar tashkil etish hamda ularning mavjud bo'lgan muammolarni eshitish, qonuniy faoliyatiga to'sqinlik qilayotgan omillarni aniqlash va bartaraf etish choralari ko'rib borish; savdo-sanoat palatasi tomonidan tadbirkorlar tomonidan sodir etilayotgan kamchiliklarni, ayniqsa jinoyatlarni tanqidiy muhokama qilish, bartaraf etish va profilaktika qilishga ko'maklashish; biznes-hamjamiyat o'z-o'zini tartibga solishi va tadbirkorlik faoliyati ustidan jamoat nazoratining huquqiy asoslarini takomillashtirish; tadbirkorlik faoliyatida biznes yuritish va uni rag'batlantirish sharoitlarini yaxshilash; tadbirkorlik subyektlari uchun litsenziyalar va ruxsat berish tartib-taomillarini qisqartirish va soddalashtirish; ishbilarmonlik va innovatsion sohadagi istiqbolli loyihalarni moliyalashtirish mexanizmlarini rivojlantirish (Farmon, 2018).



**1-rasm. Oziq-ovqat sanoatida tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlovchi infratuzilma tarmoqlari tizimi**

Oziq-ovqat sanoatida tadbirkorlik infrastrukturasini yanada rivojlantirishda tadbirkorlik tuzilmalarini xalqaro moliya institutlari va tashkilotlari bilan erkin munosabatini ta'minlash; kredit resurslariga bo'lgan ehtiyojni ta'minlashda texnologiya, xomashyo hamda butlovchi qismlar bozoriga kirish imkoniyatlarini kuchaytirish; mahsulotni realizatsiya qilish hamda eksport salohiyatini oshirishga ko'maklashuvchi ulgurji bozorlarni shakllantirish va

kengaytirish; tadbirkorlik subyektlari uchun malakali kadrlarning iqtisodiy hamda huquqiy savodxonligini oshirish va boshqalar.

Chunki oziq-ovqat sanoatida tadbirkorlikning asosiy shakli kichik biznes subyektlari hisoblanadi. Shuning uchun ham hozirda kichik biznes faoliyatiga oid yigirmadan ziyod O'zbekiston Respublikasi qonunlari, o'ndan ortiq Prezident farmonlari va o'nga yaqin Vazirlar Mahkamasi qarorlari qabul qilindi. Kichik biznes subyektlarini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning asosiy yo'nalishlari hamda mexanizmlari ishlab chiqildi.

Ammo shunga qaramay, oziq-ovqat sanoatida kichik biznes subyektlarining rivojlanishidagi mavjud imkoniyatlardan hali samarali hamda to'la-to'kis foydalanilgani yo'q. Oziq-ovqat sanoatida kichik biznesni samarali va to'laqonli rivojlanishi uchun iqtisodiy mintaqalar xususiyatlaridan kelib chiqqan holda yetarli shart-sharoitlar yaratilinishi kerak. Natijada oziq-ovqat sanoatida tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash hamda infratuzilmalar tizimi uchun shart-sharoitlarni ta'minlash muhim o'rin tutadi.

Xo'jalik faoliyati samaradorligi ishlab chiqarish jarayonini oqilona tashkil etish va unga amal qilish asosiy faoliyat uchun zamin tayyorlovchi, unga turli yo'nalishlarda xizmat ko'rsatuvchi, ishlab chiqarish natijasi bo'lmish mahsulot va xizmatlarning iste'molchiga yetib borishini ta'minlovchi soha bu infratuzilmadir.

Moliyaviy va iqtisodiy nuqtayi - nazardan imkoniyati cheklangan kichik biznes korxonalarida esa bunday yo'lni tuta olmaydi. Biroq, bozorda qoida barcha xo'jalik subyektlari uchun bir xilligi sababli, mazkur vazifa va xizmatlar kichik korxonalar hayotida ham katta ahamiyat kasb etadi. Kichik korxonalar rahbari raqobatlashuv jarayonida noqulay holatga tushib qolmasligi uchun tajribali yurist bilan maslahatlashishi, marketing tadqiqotlari uchun buyurtma berish, tovarni savdo tarmog'i orqali sotish imkoniga ega bo'lishi zarur. Bu esa, o'z navbatida oziq-ovqat sanoati kichik korxonalarida bunday ehtiyojni qondirish uchun eng qulay va samarali vosita bo'lgan infratuzilma tarmoqlari xizmat qiladi (Umarov, 2014).

Bizningcha, oziq-ovqat sanoatida kichik biznes infrastrukturasi rivojlantirish, unda tayyor va yarim tayyor mahsulotlar nomenklaturasini kengaytirish uchun hududlar doirasida bir qator vazifalarni amalga oshirish mumkin:

-tadbirkorlik subyektlari faoliyatini rivojlantirishda kredit resurslariga bo'lgan ehtiyojni ta'minlash maqsadida xalqaro moliyaviy institutlar va tashkilotlarni keng jalb etish;

-kredit resurslariga bo'lgan ehtiyojni ta'minlashda texnologiya, xomashyo hamda butlovchi qismlar bozoriga kirish imkoniyatlarini kuchaytirish;

- mahsulotni realizatsiya qilish hamda eksport salohiyatini oshirishga ko'maklashuvchi ulgurji bozorlarni shakllantirish va kengaytirish;

- tadbirkorlik subyektlari uchun malakali kadrlarning iqtisodiy hamda huquqiy savodxonligini oshirish.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda, "Tadbirkorlik va biznes faoliyatini muvaffaqiyatli rivojlanishi asosan o'zining 3 ta muhim shartlariga rioya etilishi orqali amalga oshiriladi. Birinchidan, tadbirkorlik va biznesni rivojlantirish hamda tendensiyalarini aniqlovchi qonuniyatlarini yaxshi bilish, ikkinchidan, tadbirkorlik ishi, uning resurs bilan ta'minlanishini ko'zda tutuvchi asosiy strategiyani mavjudligi, uchinchidan, tadbirkorlik va biznesga oid majburiyatlarni o'z vaqtida bajarilishini ta'minlash" (Mehmonova, 2006) va boshqalar. Biroq, kichik korxonalar o'z kuchlari, mablag'lari va intilishlari negizidagina emas, balki yirik korporatsiya, uyushma va kompaniyalar qo'llab-quvvatlashlariga tayangan taqdiridagina iqtisodiyotning yetakchi kuchiga aylanishi mumkin.

Bozor infrastrukturasi orqali tadbirkorlikni rivojlantirishda davlat strategiyasini institutsional ta'minlash masalasi bugungi kunda dolzarb muammolardan biri hisoblanadi. Buning uchun davlatning axborot bozoridagi faoliyatini tartibga solish, axborot bozori ishtirokchilarini litsenziyalash huquqini beruvchi zaruriy axborotlarni sertifikatsiyalash lozimdir. Biroq, kichik biznes subyektlari, ya'ni oziq-ovqat sanoati sohasida axborot kommunikatsiya texnologiyalari tizimini rivojlantirish masalalari alohida ahamiyatga ega. O'z

navbatida, infratuzilmaning xizmat ko'rsatish tarkibiy qismlari, asosan, yirik shaharlarda faoliyat ko'rsatishlarini hisobga olgan holda, kichik va xususiy tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish uchun tuman markazlari va shaharlarda informatsion tahlil va marketing xizmati markazlari tashkil etilishi lozim. Bu markazlar tahliliy ishlarni olib borish, kliring, birja, notarial xizmati, advokatlik xizmati, konsalting va injiniring kompaniyalari xizmati, axborot reklama va uncha katta bo'lmagan obyektlar qurilishi hujjatlarini ishlab chiqish uchun loyiha-smeta byurolari, bozor konyukturasini o'rganish xizmati ishlarini amalga oshiradi.

Oziq-ovqat sanoatida tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishda zamonaviy axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan keng foydalanishni yo'lga qo'yishga jiddiy e'tibor qaratish zarur. Hozirda mamlakatimizda davlat tashkilotlarida axborot kommunikatsiya texnologiyalari zahiralardan samarali foydalanishda ikki jihat bosh sabab bo'lib turibdi: davlat tashkiloti xodimlarining bir qismi axborot kommunikatsiyalaridan foydalanish sohasida mukammal malakaga ega emasligi hamda axborot, ya'ni ma'lumotlar infratuzilmalarining yetarlicha darajada rivojlanmaganligi.

Respublikada axborot kommunikatsiya texnologiyalari rivojlanishini samarali boshqarish uchun qarorlar qabul qilishning yangi ishonchli bazasi yaratilmoqda. Ushbu bazani yaratilinishi natijasida oziq-ovqat sanoati tadbirkorligi faoliyatini yanada takomillashtirishda samarali foydalanish mumkin.

Oziq-ovqat sanoatida tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishda axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan samarali foydalanish hisobiga axborot tizimlari bilan bog'liq bir qator loyihalarni ishlab chiqish imkonini beradi. Biroq, oziq-ovqat sanoatida zamonaviy texnologiyalardan samarali foydalanish hamda mahsulot ishlab chiqarish hajmiga qo'llash zarur. Masalan, go'sht va sut mahsulotlarini turli assortimentda sifatli qadoqlashga doir loyihalarni ishlab chiqishda foydalanish mumkin. Natijada ushbu vaziyatdan samarali foydalanish oziq-ovqat sanoatida tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishda axborot zahiralarga ega bo'lish imkonini beradi.

“agroonline.uz” axborot tizimi negizida:

- aholi xonadonlari, dehqon hamda fermer xo'jaliklari dalalarida yetishtirilayotgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining turlari va hajmlari bo'yicha elektron ma'lumotlar bazasini;

- tayyorlov korxonalarini, saqlovchi, qayta ishlovchi, eksport qiluvchi tashkilotlar va boshqa xaridorlarning qishloq xo'jaligi mahsulotlariga bo'lgan ehtiyojlarini mahsulot turlari va hajmlari bo'yicha yagona elektron axborot tizimini;

- qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqaruvchilari, qishloq xo'jaligi birlashmalari va ulgurji xaridorlar o'rtasidagi savdo-iqtisodiy hamda shartnomaviy munosabatlarni (kontraktatsiya) elektron tijorat shaklida tashkil etish tizimini ishlab chiqiladi (Qaror, 2019).

Oziq-ovqat sanoatida tadbirkorlikni rivojlantirishning yana bir muhim jihati - iste'molchilarning mahsulot assortimenti va sifati, uning tashqi ko'rinishi, o'rash usuli hamda tamg'asi, tovar belgisiga doir o'ziga xos talablarni ham bilish va unga ishlov berishda kompyuter texnologiyasi imkoniyatlaridan samarali foydalana olishi bilan bog'liq (Xodiyev, 1999). Bugungi kunda O'zbekistonda tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishda juda ko'p norozilik va e'tirozlarga sabab bo'layotgan muammolarni quyida izohlashdan oldin, hukumat tomonidan tadbirkorlik subyektlariga xizmat ko'rsatuvchi infratuzilma tashkilotlari faoliyatini takomillashtirish bo'yicha qabul qilingan so'nggi me'yoriy xujjatlarga to'xtalib o'tamiz. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 25-fevralda “Tadbirkorlik subyektlariga ajratilgan yer uchastkalarida meva-sabzavot mahsulotlarini bevosita ularni yetishtirish joylarida sug'orish, tayyorlash va saqlash bo'yicha yengil konstruksiyali infratuzilma obyektlarini qurish uchun yer uchastkasi ajratish tartibi to'g'risidagi Nizomni tasdiqlash haqida”gi 167-sonli Qarorga binoan, birinchidan, “Yengil konstruksiyali infratuzilma obyektlari, shuningdek, yengil konstruksiyali issiqxonalar qurishga yer uchastkalari faqat ushbu qurilishni amalga oshirishga talabgor bo'lgan tadbirkorlik subyektlarining yer uchastkalari doirasida hamda yer ijarasi shartnomasida belgilangan muddatga ajratiladi”,



ikkinchidan, “Tadbirkorlik subyektlariga ajratilgan yer uchastkalariga bo‘lgan huquq bekor bo‘lganda yengil konstruksiyali infratuzilma obyektlari, shuningdek, yengil konstruksiyali issiqxonalar joylashgan yer uchastkalariga bo‘lgan huquq ham bir vaqtning o‘zida bekor bo‘ladi” (Qaror, 2019). Lekin, tadbirkorning mulkni yaratish uchun qilgan sarf-xarajatlarini qoplash uchun uni boshqa bir mulkdorga sotish huquqi ko‘rsatilmagan. Bu bilan tadbirkor bir vaqtning o‘zida ikkita mulkdan maxrum bo‘ladi, uni taqdiri esa hukumat organi ixtiyoriga o‘tib ketadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 3-avgustda “Fuqarolar va tadbirkorlik subyektlarining mulk huquqi kafolatlanishini so‘zsiz ta‘minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi F-5491-son farmoyishiga esa mansabdor shaxs tadbirkorning mulkga egalik qilish huquqini poymol etganda ko‘riladigan jazo chorasini aniqlashtirilmagan va bu haqda qonun loyihasini tayyorlash topshirig‘i lozimligi ko‘rsatilgan xolos. Demak, mansabdor shaxsga jazo chorasini ko‘rishning qonuniy mexanizmi mavjud bo‘lmagandan keyin, u o‘z hatti-harakatini istaganicha qonuniy xujjatlar bilan yashiradi va vaziyatni o‘z foydasiga hal qilish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Bunday holatlar bugungi kunda O‘zbekistonda uchrab turibdi, bu haqida internetdagi saytlarda tadbirkorlarning videoroliklari joylashtirilgan va u jamoatchilik e‘tiboriga havola qilingan bo‘lsada, sud-huquq organlari vakillari tadbirkorlarga o‘z hukmini o‘tkazishda davom etishmoqda.

### **Xulosa va takliflar.**

Bugungi kunda ko‘pchilik tomonidan ko‘p muhokama qilinayotgan boshqa bir muammo bo‘lib, tijorat banklaridan katta miqdorda kredit berish so‘ralganda, talab qilinadigan garov miqdorining kredit summasidan 2 baravariga katta bo‘lishi shartligi haqidagi talabdir. Bu talab juda og‘ir bo‘lib, uni bajarish imkoniyati faqatgina yirik korxonalarda mavjud. Bu esa kichik va o‘rta hajmga ega korxonalar uchun katta miqdorda qarz mablag‘i kerak bo‘lganda uni olish imkoniyatini yo‘qqa chiqaradi. Bu esa tadbirkorlikni rivojlantirishda jiddiy to‘siq bo‘lib hisoblanadi. Chunki, kichik va o‘rta hajmdagi korxonalar ishlab chiqarish vositalarini ko‘pincha kredit evaziga xarid qiladilar.

O‘zbekistonda hanuzgacha sud-huquq organlarida zamonaviy talablarga javob beradigan statistika xizmati shakllantirilmagan. Chet mamlakatlarda sudga kelib tushayotgan arizalar soni, janjallarni ko‘rib chiqish va ularga oid qaror qabul qilishda qilinadigan xarajatlar, sarflanadigan vaqt statistikasi yuritiladi va u tegishli davlat organlari tomonidan nazorat qilinadi. Buning asosida sud-huquq organlari faoliyatiga infratuzilma xizmatlari samaradorligi nuqtai-nazaridan baho beriladi. O‘zbekistonda ham sud-huquq organlari statiskasini yuritishni joriy etish zarur. Ushbu ilmiy ishning keyingi bobida bu haqda ma‘lumotlar keltirilgan va undan mamlakatimizda ham foydalanish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Oziq-ovqat sanoatida ham xususiy tadbirkorlikka xizmat ko‘rsatuvchi va ko‘mak beruvchi soha hisoblangan bozor infratuzilmasi tashkilotlarini faoliyatini uzluksiz tarzda takomillashtirib borish lozim.

Respublika hukumati tomonidan oziq-ovqat sanoati sohasini isloh qilish bo‘yicha ko‘rilayotgan chora-tadbirlar mahalliy xomashyolarga asoslangan milliy mahsulotlarni ishlab chiqarishga va ularning jahon bozorida raqobatbardosh bo‘lishi, sifatini oshira borish orqali eksport hajmini oshirishda har bir korxonaga xomashyo yetkazib beruvchilarni ham, iste‘molchilarni ham o‘zi izlab topishi, tanlashi, ularning talab va takliflarini o‘rganib borishlari lozim.

Oziq-ovqat sanoatida tadbirkorlik tuzilmalarini takomillashtiruvchi maqbul investitsiya iqlimini yaratish hamda investitsiyalardan o‘z o‘rnida maqsadga muvofiq foydalanish uchun quyidagi strategik vazifalarni amalga oshirish zarur degan to‘xtamga keldik:

- oziq-ovqat sanoati tadbirkorligi bilan shug‘ullanuvchi subyektlarda texnologik jihatdan ishlab chiqarishni rivojlantirish, yangi iste‘mol mahsulotlari ishlab chiqarishni tashkil etishga javob beradigan innovatsion texnologiyalarni qo‘llash;

- bozor talablarini e'tiborga olgan holda ishlab chiqarish jarayonini istiqbollashtirish;  
 - investitsiyalashning asosiy dolzarb yo'nalishlarini ma'lum davrlar bo'yicha istiqbollashtirish hamda tadbirkorlarning ichki investitsiyalash mablag'lari zahiralarini shakllantirishga ko'maklashish.

#### **Adabiyotlar/ Лумепамыпа/ Reference:**

Fetyuxina O.N. (2011) *Funksionirovaniye i razvitiye agroprodovolstvennoogo rыnka Rossii v usloviyax globalizatsii: teoriya, metodologiya, praktika. Avtoreferat na soisk. uchenoy stepeni doktora nauk. Stavropol, - s. 12-13*

Farmon (2018) *O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 22-yanvarda "2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha harakatlar strategiyasini «Faol tadbirkorlik, innovatsion g'oyalar va texnologiyalarni qo'llab-quvvatlash yili»da amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risida» gi PF-5308-sonli Farmoni. <http://finansist.uz/uz/2018-yil-davlat-dasturi/>. // lex.uz*

Goncharov V.D. (1996) *Formirovaniye prodovolstvennogo rыnka. // APK: ekonomika i upravleniye. №4. - s. 51*

G'ulomov S.S. (2002) *Tadbirkorlik va kichik biznes. – Toshkent: Sharq, – 12 b.*

G'aybullayev R.M. (2005) *O'zbekiston Respublikasida tadbirkorlikni rivojlantirishning iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish: Iqt. fan. dok. dis... – Toshkent: O'z.Res. FAIL, –55–56-b.*

Ketova N.P. (2012) *Otraslevoy marketing: strategii, funktsii, prioritety: uchebnoye posobiye. –M.: Vuzovskaya kniga, – s. 320*

Kostrova Yu.B. (2014) *Analiz prodovolstvennogo rыnka Rossii. Monografiya. -SPb: Izdatelstvo Sankt-Peterburgskogo universiteta upravleniya i ekonomiki, - s. 8*

Lobacheva T.I. (2016) *“Prodovolstvennaya bezopasnost kak vajneyshaya sostavnaya chast natsionalnoy bezopasnosti”.* Moskva. s. 26

Lvov D.S. (2002) *Ekonomika razvitiya. – M.: “Ekzamen”, – S. 82.*

Mehmonova D.D. (2006) *Mintaqa ishlab chiqarish tadbirkorligining tashkiliy-iqtisodiy omillari va muammolari. Iqt. fan. nom. dis... – T.: TDTU.. – 96 b*

Mirziyoyev Sh.M. (2016) *Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz: O'zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag'ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo'shma majlisidagi nutqi.//Xalq so'zi, 2016-yil 15-dekabr.*

Muftaydinov Q.H. (2004) *Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida tadbirkorlikni rivojlantirish muammolari: Iqt. fan. dok., dis... – Toshkent.: MUO'MU, – 22-b.*

Nuraliyev S.U., Nuraliyeva D.S. (2012) *Osnovnyye napravleniya razvitiya i regulirovaniya prodovolstvennogo rыnka v usloviyax vstupleniya Rossii v VTO. // Piщevaya promыshlennost. - №12. – s. 10-13*

Qizi A. M. (2023) *Methodological Aspects of Using Marketing Strategies in Filling the Consumer Market with Food Products //Asian Journal of Technology & Management Research (AJTMR) ISSN. – T. 2249. – №. 0892.*

Qaror (2019) *O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-iyulda “Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini chuqur qayta ishlash va oziq-ovqat sanoatini yanada rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi PQ-4406-sonli Qarori. // lex.uz*

Qaror (2019) *O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 25-fevralda “Tadbirkorlik subyektlariga ajratilgan yer uchastkalarida meva-sabzavot mahsulotlarini bevosita ularni yetishtirish joylarida sug'orish, tayyorlash va saqlash bo'yicha yengil konstruksiyali infratuzilma obyektlarini qurish uchun yer uchastkasi ajratish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi 167-son Qarori. \ lex.uz*

Qaror (2022) *O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «2030-yilgacha bo'lgan davrda barqaror rivojlanish sohasidagi milliy maqsad va vazifalarni amalga oshirishni*

jadallashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida» gi 2022-yil 21fevraldagi 83-son qarori. <https://lex.uz/docs/5870397#5873213>

Rasulov M. (1999) Bozor iqtisodiyoti asoslari. – Toshkent: “O‘zbekiston”, – 217 b

Shepelov V.M. (1996) Predprinimatelstvo v usloviyax rыnоchnoy ekonomiki. // Nalogoplatelъika. – Tashkent, – № 7, – S.7

Stukanova I.P. (2009) Marketingovыe upravleniye regionalным potrebitelskim rынком prodovolstvenных tovarov. Dissertatsiya na soiskaniye uchenoy stepeni doktora ekonomicheskix nauk. –M.: - s.156

Saidov Mash'al Samadovich (2021) Elektr energetika sohasida tarif va narx shakllanishidagi muammolar va olib borilayotgan islohotlar. “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali. № 6, noyabr-dekabr, 2021-yil. [file:///C:/Users/Acer/Downloads/%D0%93%D0%9E%D0%A2%D0%9E%D0%92%D0%9E+%E2%84%96+6+2021\\_145.pdf](file:///C:/Users/Acer/Downloads/%D0%93%D0%9E%D0%A2%D0%9E%D0%92%D0%9E+%E2%84%96+6+2021_145.pdf)

Saidov Mash'al Samadovich (2021) Elektr energetika sohasini boshqarishda xorij tajribasidan foydalanish yo'llari. Iqtisodiyot va ta'lim, 2021-yil, 6-son. <file:///C:/Users/Acer/Downloads/330.pdf>

Saidov Mash'al Samadovich (2021) O'zbekistonda tabiiy monopol tashkilotlarni boshqarish va tartibga solishning iqtisodiy va huquqiy jihatlari. “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali. № 3, may-iyun, 2021-yil. [file:///C:/Users/Acer/Downloads/%D0%93%D0%9E%D0%A2%D0%9E%D0%92%D0%9E+%E2%84%963+2021\\_97%20\(1\).pdf](file:///C:/Users/Acer/Downloads/%D0%93%D0%9E%D0%A2%D0%9E%D0%92%D0%9E+%E2%84%963+2021_97%20(1).pdf)

Saidov Mash'al Samadovich (2022) Elektr energetikasi sohasida boshqaruv mexanizmlarini takomillashtirish. «Ta'lim – tarbiya jarayoniga innovatsion yondashuvlar, muammo va yechimlar» mavzusidagi respublika ilmiy – amaliy konferensiyasi. -Toshkent 2022-y. <https://cyberleninka.ru/article/n/elektr-energetika-so-sida-bosh-aruv-mehanizmlarini-takomillashtirish/viewer>

Saidov Mash'al Samadovich (2022) Ways to ensure energy security in Uzbekistan. Middle European Scientific Bulletin, VOLUME 21 Feb 2022. <https://cejsr.academicjournal.io/index.php/journal/article/view/1062/977>

Saidov Mash'al Samadovich. (2021) Challenges and solutions of formation of competitive environment in regulation of natural monopolies. International Journal of Advanced Research in ISSN: 2278-6244 IT and Engineering. <https://garph.co.uk/IJARIE/Nov2021/G-6.pdf>

Umarov I.Yu. (2014) Oziq-ovqat sanoatida tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish istiqbollari. Monografiya. – T.: Fan va texnologiyalar, –103 b.

Umarov I.Yu. (2019) Tadbirkorlik asosida faoliyat ko'rsatishning yangi shakllari va ulardagi o'zgarishlar. // Biznes-Ekspert, – T.: – №1, 8-b.

Xodiyev B. (1999) Tadbirkorlik faoliyati tashqi omillari. // Bozor, pul va kredit. –Toshkent.: – №5. 42–43-b.

Yo'ldoshev Nuriddin Qurbonovich, Saidov Mash'al Samadovich, Samiyev Shoxrux Faxriddin o'g'li (2022) O'zbekistonda elektr bozorini shakllantirish imkoniyatlari: swot –tahlili. Iqtisodiyot va ta'lim / 2022-yil 1-son <https://cedr.tsue.uz/index.php/journal/article/view/348/390>

Azlarova M. (2023). Iqtisodiyotning globallashtirish sharoitida ichki bozorni oziq-ovqat tovarlari bilan to'ldirishning nazariy asoslari. Iqtisodiyot va ta'lim, 24(1), 292–300. [https://doi.org/10.55439/ECED/vol24\\_iss1/a45](https://doi.org/10.55439/ECED/vol24_iss1/a45)

Azlarova, M. (2024). Iste'mol bozorini oziq-ovqat tovarlari bilan to'ldirishda marketing strategiyalaridan foydalanishning uslubiy jihatlari. Iqtisodiyot va ta'lim, 25(1), 160-170.